



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

O'quvchilarni kreativ fikrlashda badiiy asarning o'rne

O.Sh.Norov, (PhD), dotsent
Qashqadaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

Mavzuning qisqacha bayoni:

Bugungi kunda dunyo shu qadar tez o'zgarib bormoqdaki, ta'lim tizimi u bilan tenglashishga ulgurmayapti. Maktabdagi a'lo darajadagi natijalar porloq professional kelajakni kafolatlamaydi, degan tushuncha paydo bo'lmoqda. Shaxsiy va moslashuvchan ko'nikmalar esa ishga qabul qilishning muhim mezonlaridan biriga aylanmoqda. Shuning uchun biz siz uchun yosh avlod orasida eng ko'p talab qilinadigan bir qator ko'nikmalarni to'pladik.



Kreativlik tushunchasi hamda kreativ fikrlash

Kreativlik – layoqat, jarayon va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat bo'lib, u orqali shaxs yoki guruh ushbu ijtimoiy kontekst uchun ham yangi, ham foydali bo'lgan salmoqli mahsulotni yaratishidir.

Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda kreativlikni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

◆ Madaniyatlararo vakolat

Bugungi kunda ko'plab xalqaro loyihalar paydo bo'lmoqda va xalqlar o'rtasidagi chegaralar asta-sekin yo'qolib bormoqda. Boshqa madaniyat vakillari bilan ishlash uchun turli xalqlarning an'analari va milliy urf-odatlarini xususiyatlari haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish kerak.



Aynan ona tili fani o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, mustaqil va kteativ fikrlaydigan, o'zgalar fikrini to'g'ri talqin qila oladigan, so'zlashuv madaniyati rivojlangan shaxsni ulg'aytirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Kreativlik negizida aks etuvchi muhim sifatlar



Bugungi kunda



Ona tili va adabiyot



o'quvchilarda yuksalishi uchun o'qituvchi ta'lim oluvchiga faqatgina ma'lumotni berish bilan cheklanmasdan, uning yozma hamda og'zaki savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishi muhimdir.



- ❖ doimiy ravishda o'rganish va rivojlanish;
- ❖ hayoti davomida olgan bilimlarini turli vaziyatlarda qo'llay olish;
- ❖ faol ijodiy fikrlash;
- ❖ belgilangan vazifalarni hal qilishning nostandart usullarini topish;
- ❖ o'zining shaxsiy va jamiyat qadriyatlaridan kelib chiqib professional yo'l hamda hayotiy ko'rsatmalarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lish.

TAKLIF

Mezonlarga asoslangan baholash tizimi



O'z-o'zini tarbiyalash



Ko'pgina yoshlar tobora ertalabdan kechgacha ofisda o'tirishni emas, balki o'z kunini mustaqil rejalashtirishni afzal ko'rishmoqda. Va kompaniyalar ularning bu rejalarini qo'llab-quvvatlaydilar. Ammo bu tarzda ishlash uchun yuqori darajadagi intizom va vaqtni rejali boshqarish talab etiladi.

Ona tili va adabiyot
darslarida
o'quvchilarning

ijodiy fikrlash

o'z fikrini ravon bayon qilish,

yozma usullarda to'g'ri,
xatosiz, o'rinli

ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish
va rivojlantirish alohida ahamiyat kasb
etadi.



- ✓ aqliy faoliyat;
- ✓ til kompetensiyalari;
- ✓ to'g'ri va xatosiz yoza olish;
- ✓ tushunish uchun zarur bo'lgan grammatika va tilshunoslikning kengroq sohasiga xos shakllari;
- ✓ o'z fikrini ravon ifodalay olish.



Savol- javob, debatlar o'tkazish

Savol-javob tarzida darslarni tashkil etishdan maqsad muammoning yechimini to'g'ri, asosli topishda o'quvchi atrofdagilarni o'z mulohazalarining to'g'riligiga ishontirishdir.



Aniq hamda mantiqiy fikrlash, ishonarli dalillar va xulosalar keltshiri ko'nikmalarini shakllantirishda debatlar o'tkazish samarali usul sanaladi.

So'nggi nasiba

Uylarga tushishga odatlangan ashaddiy o'g'ri- Bill o'z ishining go'zal lahzalarini yoqtirardi.

Tongda u devor oshib, bir uyga kirdi. Barcha qimmatbaho taqinchoqlarni yig'ishtirib olib, mashinasiga olib bordi. Bu payt qorni judayam ochgandi. Televizor qarshisida tamaddi qilish uchun o'sha uyga oxirgi marta kirdi. Ovqatlanib bo'lgach, biroz mizg'ib olmoqchi bo'ldi va qaytib uyg'onmadi. Xonadon sohiblari kalamushlarni zaharlamocchi edi. (Dolores Rup.)

Amaliy mashg'ulot



Baholash mezoni


**Matnni tahlil qilgan holda
xulosa qilish.**

Quyidagi javoblar to'liq qabul qilinadi:

- ✓ Odamzod qiladigan har bir ishning natijasi uning oqibati bilan belgilanadi.
- ✓ Hikoyadan shuni xulosa qilish mumkinki, yomon ishning, albatta, javobi bor.



XX asr o'zbek she'riyatining o'ziga xos vakili, millatparvar shoir Shavkat Rahmon 1950- yilning 12- sentabrida O'sh shahrida tug'ilgan. Shoirning otasi Rahmonberdi asli Shahrixon tumanidagi Saroy qishlog'idan bo'lib, taqdirning taqozosi bilan O'sh shahriga kelib, turg'un yashab qolgan.



- Qilichin tashladi beklar nihoyat,
- Bosildi tulporlar, tig'lar suroni,
- Urhoga o'rgangan tillarda oyat,
- Turkiylar tanidi komil xudoni".
- "Qilichlar zangladi... falokat hushyor,
- Turkiylar quvvatin berdi yerlarga.
- Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov
- Komillik qidirgan jasur erlarga.
- Jo'mardlar qirilgan Turonzaminda
- Do'zaxiy tajriba pallasin ko'rdim:

- Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov
- Komillik qidirgan jasur erlarga.
- Ilvasin yigitlar,
- Bobir yigitlar,
- Sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab,
- G'ullarni kemirib yig'ladi itlar,
- Buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.
- Eshshak suvrati bor qay bir qavmda,
- Qay birida to'ng'iz kallasin ko'rdim.

- Bu holdan buvaklar bo'g'ilib o'lar,
- Qul Bilol ezilib yig'lar falakda...
- O'zlarin yondirar borliqdan to'ygan
- Badaxshon la'liday asl malaklar.
- Mo'minlar besh bora Allohni eslar
- Sajdaga bosh qo'yib jallod toshiga.
- Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,
- Bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,
- Bormi bul tufroqda o'zligin izlab,
- Osmonu falakka yetgan bolalar.

- Bor bo'lsa, alarga yetkarib qo'ying,
- bir boshga bir o'lim, demagan ermas,
shahidlar o'lmaydi, bir qarab to'ying:
- Yovga ters qaragan musulmon emas!
- Yovga ters qaragan musulmon emas!
- Yovga ters qaragan musulmon emas!
- Yovga ters qaragan musulmon emas!
- Yovga ters qaragan musulmon emas!

XULOSA

Ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, undagi muhit o'quvchiga zavq bersin. Bunday muhitni yaratish ta'lim beruvchining mahoratiga bog'liq. Mahoratli ustoz o'z o'quvchisining komil inson bo'lib yetishishiga yordam beradi, uning hayotga bo'lgan muhabbatini, ishonchini yuksaltiradi.

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**